

# **“Mirzo Ulug‘bek vorislari” ko'rik-tanloving Termiz shahar bosqichi g'oliblari aniqlandi**



“Mirzo Ulug‘bek vorislari” ko'rik-tanloving Termiz shahar bosqichi g'oliblari aniqlandi

Bugun, 17-mart kuni Surxondaryo viloyati Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar boshqarmasi hamda Termiz shahar hokimligi hamkorligida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika ko'rik-tanloving Termiz shahar bosqichi o'tkazildi.

Mazkur tanlovda 16-25 yoshgacha bo'lgan 24 nafar o'quvchi va talaba-yoshlar o'z ixtirolari, g'oya va ishlanmalari bilan ishtirok etdi. Eng yaxshi loyihalar taqdimotini o'tkazgan 5 nafar iste'dodli yigit-qiz viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritib, sertifikat hamda BHMning 5 barobari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlandi.



